* SHAXS TIPLARIGA HOS GEOMETRIK SHAKLLAR

PSIXOGEOMETRIYA



* Qog`ozga chizilgan 5-ta geometrik shakllarga qarang (kvadrat, uchburchak, doira, zigzak, to`rtburchak). Mazkur shakllardan birini tanlang. Agar bunga qiynalsangiz, sizni ko`proq qiziqtirgan shaklni tanlang va uning yozing.

* KVADRAT
* Kvadratlar eng avvalo o`zlarining mehnatsevarligi, sabr, toqat bilan boshlagan ishni oxiriga etkazish xususiyatlari bilan ajralib turadilar. Sabr-bardoshlilik, chidam kvadratni o`z sohasining usta mutaxassisi bo`lib etishishiga olib keladi. Yangi informatsiyaga (axborotga) bo`lgan ehtiyojning yuqoriligi ham bunga yordam beradi. Kvadratlar har xil ma'lumotlarni to`plab yuradilar, ularni tartibga solib, sistemalashtiradilar, shuning uchun ular zarur informatsiyani darhol topib berishlari mumkin.
* Darhaqiqat kvadratlar o`z sohasiga tegishli ma'lumotlar manbai hisoblanadilar. Ularning yana bir kuchli tomonlari, fikriy tahlil hisoblanadi. Agar siz o`zingiz uchun kvadratni tanlagan bo`lsangiz, sizda chap yarim sharlar faolroq hisoblanadi, ya’ni sizda informatsiyani ketma-ket tartib bilan qayta ishlash izchil a-b-v-g va h.k. tarzda kechadi.
* Kvadratlar natijani taxminan emas, aniq hisoblaydilar. Ular hodisa va voqealarga juda e'tiborli. Tartib, intizomni xush ko`radilar. Kvadratlar rejali, aniq maqsadli hayotni yoqtiradilar, voqealarning odatiy kechishidagi o`zgarishlarni yoqtirmaydilar. Ular doimo odamlar va atrofidagi narsalarni tashqillashtiradilar (tartibga soladilar). Bu xususiyatlar kvadratlarni yaxshi ish yurituvchi, ijrochi bo`lishlarini ta'minlaydi. Lekin afsuski ulardan yaxshi ish beruvchi, menedjer chiqishi qiyinroq. O`ta mayda-chuydalarga e'tibor, aniqlik kiritish uchun qo`shimcha ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, ularning tezkorligini susaytiradi. O`ta tartiblilik, qonun-qoidaga aniq rioya qilish ularda o`ta kuchlidir. qaror qabul qilishda ayniqsa, tavakkal ish tuta olmaydilar.
* Kvadratlardagi sovuqqonlik, hissiyotga berilmaslik, aniqlilik har xil odamlar bilan aloqada bo`lishini qiyinlashtiradi.

* UCHBURCHAK
* Ular harakatchan, kuchli shaxslar. O`z oldilariga aniq maqsadlar qo`yadilar va odatda ularga erishadilar. Eng asosiy narsani ilg`ab olish ularning harakterli belgilaridir.
* Uchburchakning etakchi sifati birinchi bo`lishga intilishdir. Uchburchaklarda kvadratlar kabi faollik chap yarim sharlarga to`g`ri kelib, ular yaxshigina intellekt sohibidirlar. Vaziyatni tez va chuqur tahlil qilish va shu asnoda masalaning mazkur sharoitdagi eng to`g`ri echimini topishga qodirdirlar. Shu sababli uchburchaklardan juda yaxshi rahbarlar, menedjerlar chiqadi. Ular o`z ishlari va qo`l ostidagilar mehnatini «yuqori lavozimdagi boshliq» e'tiboriga qanday taqdim etishni bilishadi.
* Uchburchaklar o`zlarini doimo haq deb hisoblaydigan, o`ziga ishongan odamlar. Doimo haq bo`lishga kuchli ehtiyoj, boshqaruvga intilish hissi, masalani faqat o`zi uchun emas, o`zgalar uchun ham hal qilishga harakat qilish uchburchaklarni doimo boshqalar bilan bellashishga, kurashga da'vat qiladi. Bunday shaxslar dunyoqarashida omad, g`alaba, yutuq kabi tushunchalar etakchi o`rinni egallaydi.
* Ular ko`pincha tavakkalchi, toqatsizdirlar, ayniqsa qaror qabul qilishda ikqilanadigan kishilarga toqatlari yo`q. Uchburchaklar o`z xatolarini tan olishni yoqtirmaydilar. Juda qiyinchilik bilan o`z xatolariga iqror bo`ladilar. Ko`pincha ular o`z so`zlarida turib oladilar. E'tirozni qabul qilmaydilar va o`z bilganlaricha ish tutadilar. Shu qatorda ular asosiy maqsadlariga olib boradigan narsalarni, foydali axborotlarni tez singdirib oladilar.
* Uchburchaklar shuxratparast, kar'erist, jamiyatda yuqori darajaga erishishga harakat qilishadi. Ishga kirishishdan oldin va qaror qabul qilishda uchburchaklar o`z oldilariga quyidagicha savol qo`yadilar: «Xo`sh men bundan qanday manfaat ko`raman?». Ular foyda keltiradigan ishni yo’z chaqirimdan sezishadi va uning uchun raqiblari bilan ayovsiz kurashga tayyor bo`lishadi. Biroq ularning asosiy salbiy sifatlari kuchli egotsentrizm, o`ziga yo`nalganlikdir. Uchburchaklar hokimiyat cho`qqisiga intilish yo`lida har qanday vositadan foydalanishga tayyor, o`z maqsadlariga erishishda boshqalarning xohishlarini hisobga olmagan holda, ularning boshi ustidan yurib borishdan qaytmaydigan kishilar toifasidandir.
* Uchburchak hamma-yu hammani o`z izmiga solishga harakat qiladi. Ularsiz hayot o`z keskinligini yo`qotgan bo`lardi.

* AYLANA
* Aylana – bu mutanosiblikning falsafiy timsolidir. Kim bu shaklni tanlagan bo`lsa, u yaxshi shaxslararo munosabatga astoydil intiladi. Odamlar va ularning rohat-farog`ati aylana uchun oliy himmatdir.
* Aylana boshqa shakllar ichida ko`proq odamlarga yaxshilik tilovchi ularni birlashtiruvchi shakldir. U jamoani, oilani mustahkamlash uchun hizmat qiladi. Aylana-ajoyib notiq, e'tiborli tinglovchi. Atrofidagi odamlarga hamdardlik ularning xursandchiligi-yu tashvishiga sheriklik aylanaga xos, u sezgirlik bilan o`ksik ko`ngilga taskin berishga shoshiladi. Aylanalar odamlarni tez «bilib oladilar», aldamchi, xudbin kishilarni tezda payqab olish xususiyatiga egadirlar. Aylana-o`z jamoasi uchun qayg`uradi va o`z kasbdoshlari orasida hurmat-e'tiborga sazovor kishidir.
* Ammo ular biznes sohasida muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsata olmaydilar, ya’ni menenjer va rahbarlik sohasida bo`shroq hisoblanadilar. Chunki, birinchidan, aylanada shaxs yo`nalganligi odamlarga qaratilgan bo`lib, har bir kishining og`irini engil qilishga o’rinadilar. Ular tinchlik va osoyishtalikni saqlashga o’rinadilar, hamda o`ta qat'iy qaror chiqarishdan qochadilar.
* Aylana uchun murosasizlik og`ir holat, odamlarning inoq, ahilligi va yaxshi munosabatda bo`lishlari baxtdir. Shuning uchun kim bilandir tortishib qolsa yoki ziddiyatli vaziyatlarda birinchi bo`lib aylana yon beradi va murosaga kirishadi.

* TO`G`RI TO`RTBURCHAK
* Bu shaxsning davriy o`tish shakli bo`lib, hayotning ma'lum bir bo`laklarida nisbatan mutloq hisoblangan to`rt shaklda ham namoyon bo`lishi mumkin. Bu odamlar o`z hayotlarining hozirgi kechish tarzidan qoniqmaydilar va uning yaxshilanishi uchun izlanish va harakatda bo`ladilar. To`g`ri, bu shaklni tanlash sabablari turlicha bo`lishi mumkin, ammo ularni birlashtirib turuvchi narsa bitta - insonning o`zgarishlarga xayrixohligidir.
* To`g`ri to`rtburchakning asosiy psixologik holati-muammoni tushunib etishda noaniqlik, dovdirab qolish, chuvalashtirib yuborish, shuningdek, o`z-o`ziga bo`lgan munosabatlarining ham ma'lum bir vaziyatlarda noaniqligi ko’zatiladi.
* To`g`rito`rtburchak holatlari kunaro, xatto kun davomida o`zgarib turadi. Ularning o`z-o`zini baholashi deyarli doim past bo`lganligi uchun «yaxshi» bo`lishga intiladilar. Yangi ish uslublarini izlaydilar. Hayot tarzini yaxshilashga intiladilar. Agar to`g`ri to`rtburchakning hatti-harakatini diqqat bilan ko’zatsak, u boshqa shakllar: «uchburchak», «aylana» va boshqalarning «kiyimlar»ini «kiyib» ko`radi. To`g`rito`rtburchaklarninig hatti-harakatlari kutilmaganda shiddatli, keskin, o`zgarib turishi atrofdagilarni sergak tortiradi va ular ongli ravishda bunday «o`zgaruvchan odam» bilan muloqotga kirishishdan qochishlari mumkin. Aslida esa ular uchun boshqalar bilan muloqotda bo`lish zaruratdir, o`zgaruvchanlikning yana bir qiyinchilik tomoni ham shunda.
* To`g`ri to`rtburchaklardagi ijobiy fazilatlardan biri hayotiy qiziquvchanlik, faollik va jasoratdir. To`g`rito`rtburchaklar ulargacha hech kim qilmagan ishlarni qilishga, hech kim o`ylab ko`rmagan savollarga javob berishga harakat qilishadi. Bu shaklni tanlagan kishilar mazkur hayotiy bosqichda yangi g`oyalar, qadriyatlar, turli qarash va hayot tarzlarini osongina qabul qilishadi. To`g`ri, ikkinchi tomondan qaraganda, bu narsa ularni haddan tashqari ishonuvchan, turli ta'sirlarga beriluvchan, soddaroq bo`lishlariga olib keladi. Shuning uchun ham boshqalardan ko`ra ularga ta'sir o`tkazish osonroq.

* ZIGZAG
* Bu shakl-ijodkorlik timsolidir. Zigzag-haqiqiy o`ng yarim sharning faolligi aks etgan noan'anaviy fikrlovchi shaxs. Unga obrazli fikrlash, oldindan his etish (intuitsiya), integrativ (mujassamiy) fikrlash xususiyati xosdir. Uning o`y-fikrlari bir zumda bir-biridan o’zoq bo`lgan nuqtalarga ko`chishi mumkin, shuning uchun atrofdagilarga ularni tushunishlari qiyin kechadi.
* Zigzaglarga ko`proq tafakkurning sintetik turi xosdir. Ularga bir-biridan mutloq farq qiladigan g`oyalarni birlashtirib, mujassamlashtirib, shu asosda butunlay yangi o`ziga xos g`oyalar yaratish yoqadi.
* Aylanalardan farqli o`laroq zigzaglar kelishuvlar, konsensuslarni afzal ko`rmaydilar, ular o`z maqsadlariga yon bosishlar orqali emas, balki g`oyalar qarama-qarshiligini kuchaytirish va nizo o`z echimini topishi mumkin bo`lgan yangi kontseptsiyalarni yaratish yo`li bilan erishadilar.
* Tabiatan aqlli hisoblangan Zigzaglar g`oyat tili zahar bo`lishlari ham mumkin. Ular dunyoni doimiy o`zgarishda ko`rishni xohlaydilar. Shu sababli ular uchun hamma bilan murosaga keluvchilar, o`zgarmaydigan qonun-qoida, ko`rsatma kabi narsalardan ko`ra zerikarliroq narsa yo`q.

*E’TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT